

## TO'PALANGDARYO SUV OMBORI

**Matchonova Marhabo**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Tarix ta'lim yo'nalishi 3- kurs 303- guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, To'palangdaryo suv omborining qurilishi, infratuzilmasi, ekologik va iqtisodiy ahamiyati batafsil ko'rib chiqilgan. Suv ombori, asosan, hududdagi sug'orish tizimlari va ichimlik suvi ta'minotining samarali boshqarilishi uchun zarur bo'lib, hududdagi aholi turmushini yaxshilashda muhim rol o'ynamoqda. To'palangdaryo suv omborining ishlash tizimi, uning foydalari va uni boshqarishdagi muhim jihatlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** To'palangdaryo, suv ombori, , sug'orish tizimi, ichimlik suvi, ekologik ahamiyat, iqtisodiy foyda, suv resurslari, qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, infratuzilma, tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish.

**To'polon suv ombori** — Surxondaryoning o'ng irmog'i — To'polondaryo qurilgan yirik gidrotexnika inshooti. Surxondaryo viloyati Uzun qishlog'idan 1,5 km uzoqlikda joylashgan. Suv ombori qurilishi 1983-yilda boshlangan. Sug'orish va gidroenergetika maqsadlariga xizmat qiladi. Daryo suvini mavsumiy yig'adi. Suv ombori o'zanli tipda. Tarkibida tosh-tuproqli to'gon, suv chiqarish (300 mUsek) va suv tashtama (120 m<sup>3</sup>/sek) inshootlari, GES (quvvati 175 MVt) bor. Loyixaga ko'ra to'g'oni uz. 410 m, bal. 180 m, to'liq sig'imi 500 mln. m<sup>3</sup> foydali sig'imi 470 mln. m<sup>3</sup>.

Surxon-daryo viloyatining Denov, Sho'rchi, Qumqo'rg'on tumanlaridagi ekinzorlarni sug'orishda foydalaniladi, bir qator kanallarga suv beradi, GES quvvati viloyatning janubiy hududlarida elektr energiyasi ta'minotini yaxshilaydi.



To'palang suv ombori (To'polon)

To‘palang GESining o‘rnatilgan quvvati 175 MVtni tashkil qiladi . Yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish 467 million kVt/soatni tashkil etadi. Suv omborining birinchi bosqichi (30 MVt) 2006-yilda ishga tushirilgan. Ikkita gidroelektr blokiga — har birining quvvati 15,5 MVt bo‘lgan 2 ta turbina va 18,75 MVt quvvatga ega 2 ta generator o‘rnatilgan. Birinchi bosqichda yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish 63 million kVt/soatni tashkil etib, Surxondaryo viloyatida elektr energiyasi iste’molini 40-50 foizga qoplagan.

Ikkinchi bosqich (145 MVt) 2023-yilda ishga tushirilgan. Har birining quvvati 72,5 MVt bo‘lgan ikkita gidroagregat o‘rnatilgan. Barcha to‘rtta gidravlika bloklari Rossiyaning Leningrad metall zavodida (LMZ) va Power Machines OAJning Elektrosila zavodida ishlab chiqarilgan. Ikkinchi bosqichning qiymati 84,4 million dollarni tashkil etadi, shundan 38,3 million dollari Rossiya davlat korporatsiyasi hisoblanadigan VEB.RF krediti hisobiga qoplangan. Qurilish-montaj ishlari „To‘palang HPD“ xolding tarkibiga kiruvchi „To‘palang HPD Platinum“ korxonasi tomonidan amalga oshirilgan, uning direktori va ta’sischisi (61,7%) „O‘zbekgidroenergo“ DAK rahbari Abdug‘ani Sanginovning o‘g‘li Islom Abdug‘aniyevich Abdurahmonov hisoblanadi. 13-mart kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida ikkinchi bosqichni foydalanishga topshirishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tgan. 2021-yil sentyabr oyida Sariosiyo, Denov, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on, Bandixon, Qiziriq, Sheobod, Angor, Muzrobod shaharlarining 1,7 million aholisini ichimlik suvi bilan ta’minlashga mo‘ljallangan To‘palang suv omboridan 361 kilometr uzunlikdagi magistral suv quvurini qurish boshlangan. Surxondaryo viloyatining Termiz tumani va viloyat markazi — Termiz shahrini ham suv bilan ta’minlanish darajasini yaxshilaydi. Ushbu magistral buyurtmachisi — Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tizimidagi suv ta’minoti va kanalizatsiya unitar korxonalari aktivlari negizida 2019-yilda tashkil etilgan „O‘zsuvta’minot“ AJ hisoblanadi. Bosh pudratchi — To‘palang HPD Platinum. Loyiha qiymati 138 million AQSh dollarini tashkil etadi. Loyiha davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan. 1420 × 10 diapazonidagi tashqi ikki qavatli polietilen izolyatsiyali po‘lat quvurlar Rossiyaning Zagorsk quvur zavodi tomonidan yetkazib beriladi. Loyihani yakunlanishi 2024-yilga rejalashtirilgan.

To‘palangdaryo suv ombori samarali ishlashi uchun mukammal infratuzilma yaratish zarurati mavjud. Bu omborning xavfsizligi va samaradorligi, uni boshqarish va ta’minlashda muntazam ishlarni talab qiladi. Ombor va uning atrofidagi inshootlar shuningdek, sug‘orish tarmoqlariga ulanish imkoniyatlarini yaratadi, bu esa sug‘orish tizimlarining optimal ishlashini ta’minlaydi. To‘palangdaryo suv ombori ekologik jihatdan ham muhimdir. Suv resurslarining to‘planishi va qayta ishlatilishi tabiiy muvozanatni saqlashga yordam beradi, suv tanqisligi va qurqishlarining oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, suv omborining qurilishi va uning ekspluatatsiyasi

hududda yangi ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy rivojlanishga turtki beradi. To'palangdaryo suv ombori nafaqat qishloq xo'jaligi uchun, balki mahalliy aholi uchun ham ichimlik suvi ta'minoti bilan bog'liq masalalarni hal qilishda muhim rol o'ynamoqda. Loyiha yakunida 11 mingdan ortiq xonadonda yashovchi 44 ming nafardan ziyod insonlarni ilk marta ichimlik suvi bilan ta'minlash imkoniyati yuzaga keladi. 18 805 xonadonda yashayotgan 75 mingdan ziyod kishining bu boradagi ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Natijada, viloyat aholisini markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 70% dan oshadi. Qolaversa, 945 ta xonadon yoki 4000 ga yaqin aholining oqova suv quvuri tizimiga ulanishiga imkon yaratiladi. Press-tur davomida “O'zbekgidroenergo” boshqaruvi raisi bilan o'tkazilgan jonli muloqot jurnalist va bloggerlar uchun O'zbekiston gidroenergetika sohasi bilan yaqindan to'laqonli tanishish, joriy va istiqbolli loyihalar, hamkorlik loyihalari haqida yetarlicha ma'lumot olish, amaliy ishlab chiqarish faoliyatining o'ziga xos jihatlarini o'rganish, asosiy ko'rsatkichlar va tahliliy ma'lumotlarni olishga xizmat qildi.

“O'zbekgidroenergo” AJ O'zbekiston tabiiy suv resurslaridan oqilona foydalangan holda, xalqimiz xonadonlaridagi yorug'lik manbai barqarorligini, aholini qayta tiklanadigan, ekologik toza va arzon elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash jarayoniga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Surxondaryodagi To'palang suv ombori Sariosiyo tog'laridan oqib tushgan suvlarni bir joyga to'plash natijasida vujudga kelgan. O'ziga xos tabiati va baland tog'lar qurshovidagi ushbu katta gidroinshoot bu yerda yashovchi aholi uchun eng zarur manba hisoblanadi. Denov, Sho'rchi, Qumqo'rg'on tumanlaridagi ekinzorlar mazkur suv ombori orqali sug'orilsa, uning quyi qismidagi GESlar quvvati viloyatning janubiy hududlarini elektr energiyasi bilan ta'minlaydi. To'palang suv omborining sig'imi 500 mln kub. m ga teng. O'zbekiston prezidentining 2021-yil 1 va 2-iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida To'palang suv omboridan ichimlik suvi tarmog'i tortish bo'yicha ko'rsatmalariga muvofiq, hozirgi kunda viloyatning 11 ta tumanida amaliy ishlar tizimli ravishda olib borilmoqda. Bu juda murakkab loyiha bo'lib, dastavval To'palang suv omborining quyi qismida bosimni so'ndirish, suvni tozalash va tarqatish inshootlari qurilmoqda. To'palang suv omboridan olingan suv avval asosiy inshootga quyiladi, keyin esa magistral quvurga uzatiladi. Loyihaga ko'ra, To'palang suv ombori tumanlardagi suv taqsimlash uzellarigacha jami 361 km quvur tortiladi. Bu tizim samarasida Sariosiyo, Denov, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Bandixon, Qiziriq, Sherobod, Angor, Muzrabot, Termiz tumanlari va Termiz shahridagi 1,7 mln aholining suv ta'minoti yaxshilanadi. Loyihaning umumiy qiymati 138 mln dollar bo'lishi hisob-kitob qilingan. Uni 2024-yilda ishga tushirish rejalashtirilmoqda.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, To'palangdaryo suv ombori, o'zining qishloq xo'jaligi va ichimlik suvi ta'minoti tizimiga qo'shgan hissasi bilan O'zbekistonning suv resurslarini boshqarishdagi muhim tarkibiy qismidir. Ushbu ombor ekologik barqarorlikni ta'minlash, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va aholi turmushini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Shu bois, uning holatini kuzatish, texnik va ekologik jihatdan samarali ishlashini ta'minlash zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining suv resurslarini boshqarish bo'yicha davlat siyosati (2020). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi.
2. O'zbekiston suv omborlari va ularning iqtisodiy ahamiyati. (2017). – Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
3. Ibragimov, A. (2015). "Suv omborlarining ekologik va iqtisodiy ta'siri." – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
4. Shodmonov, B., & Akhmedov, T. (2019). "Qishloq xo'jaligida suv resurslarini boshqarish." – Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
5. "O'zbekistonning suv ta'minoti va ekologik muammolari." (2018). – Toshkent: O'zbekiston ekologik inspeksiyasi nashriyoti.
6. Zokirov, D. (2021). "Suv omborlari va ularning mintaqaviy rivojlanishdagi o'rni." – Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi.